


**BUXORO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**BUXORO VILOTATINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2024- YIL YANVAR-FEVRAL
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




**Tel.: 65-223-80-42
www.buxstat.uz**

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


(2024-yil 1-mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4 057 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 69 tasi yangi tashkil etilgan korxonalar sirasida kiradi.

Jami faoliyat yuritayotgan



Jami yangi tashkil etilgan





Buxoro viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-fevral oylarida respublika korxonalaridan 3 999,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shahar va tuman kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2024- yilning yanvar-fevral oylarida 1 973,1 ming so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,6 % ni ko'rsatmoqda.





viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 3 716,2 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,0 % ni tashkil etdi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, shahar va tuman kesimida

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 44,6 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,1 % ga toʻgʻri keldi.




*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*




yanvar-fevral oylarida yirik korxonalar bo'yicha

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oltingugurt, t.	133,0	231,3	98,3
Gips, t.	73 800,0	31 142,0	- 42 658,0
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. s'om	23 101,2	24 000,2	899,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Ishlab chiqaradigan sanoat shahar va tuman kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 716,2 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 93,0 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi






Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2023- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,7 % (1,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 45,4 % (36,4 %), quyi texnologiyali 52,9 % (62,0 %)ni tashkil etgan.




Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 35,5 % (2023- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 115,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 31,4 % (2023- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi – 107,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,8 % (2023- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi –94,8 %) ni tashkil etdi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa no metall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarishning ulushi – 5,1 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,4 % (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,1 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 1 012,2 ming tonna avtomobil benzini (2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 1,9 % ga ko'paygan), 4 493,1 ming litr aroq mahsulotlari (34,0 % ga pasaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Mazut, ming t.	8,4	12,0	3,6
O'simlik yog'i (tozalangan), t	966,0	639,0	-327,0
Paxta tolasi, t	21 049,0	17 674,0	-3 375,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	6 411,9	4 796,6	- 1 615,3
Paxta chigiti, t.	32 788,0	29 001,0	- 3 787,0

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 58,6 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 6,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 18,9 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 202,6 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,6 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 96,2 % ni tashkil va ishlab chiqarish hajmi 624,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 77,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 46,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 28,7 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,8 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1 146,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,8 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 106,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 123,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 35,8 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Asosiy faoliyati bu – xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan kreking va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalash. Shuningdek etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, shu bilan birgalikda neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 35,5 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 115,3 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 1 420,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 86,0 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 19,7 mlrd. so‘m kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (jumladan, ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblardan uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko‘rsatilgan metallar (ba’zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.



2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 25,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, shahar va tumanlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 197,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,9 % ini) tashkil etgan.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-fevral oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 130,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 90,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektr energiya, mln. kVt.s	1,3	1,7	0,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	221,1	200,5	- 20,6

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, shahar va tumanlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,2 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % iga) to'g'ri keldi.




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 21,5 % ga ko'payishi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 10,6 % ga ko'payishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	3 294,8	4 004,1	709,3
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	60,1	66,5	6,4




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 274,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 31,9 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-fevral oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 37,6 % ni tashkil etgan.

yanvar-fevral
mlrd. soʻmda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining
jami sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi



yanvar-fevral
ulushi, % da

